Ta'lim muassasalariga qabul jarayonida testlardan ilk bor 1937-yilda AQShda foydalanilgan. O'sha yili SAT (Stanford Achievement Test) nomli test Brown, Yel va Princeton universitetlariga qabul jarayonida sinov tariqasida joriy etilgan bo'lib, uni 2000 nafardan ortiq abituriyent topshirgan. Shundan so'ng AQShdag'i va boshqa mamlakatlardagi ko'plab oliy ta'lim muassasalari kirish imtihonlarida test usulidan foydalanishni o'z amaliyotlariga tatbiq eta boshladi.

Bugungi kunda dunyoning deyarli barcha davlatlarida oliy ta'lim muassasalariga qabul vaqtida test sinovlari o'tkaziladi. Biroq har bir davlat bu borada o'ziga xos yondashuvni shakllantirgan. Masalan, Angliyada markazlashgan test sinoviga qo'shimcha ravishda universitetlar boshqa mezonlarni ham hisobga oladi. Yaponiyada esa kirish testlari ikki bosqichda tashkil etiladi: birinchisi – barcha abituriyentlar ishtiroy etadigan markazlashgan test, ikkinchisi – har bir oliy ta'lim muassasasi



tomonidan alohida o'tkaziladigan test sinovi. AQShda esa kirish testlarini mustaqil nodavlat baholash tashkilotlari o'tkazadi. Universitetlar ushbu testlarda olingen ballarni qabul jarayonida asosiy mezonlardan biri sifatida ko'rib chiqadi.

Hozirgi kungacha test sinovlari baholash vositasi sifatida davr sinovidan o'tdi. Olimlar tomonidan olib borilgan ko'plab ilmiy taddiqotlar test natijalarining obyektivligini va baholash mezonlariga mos kelishini tasdiqlagan. Natijada test nazariyasi va amaliyotini o'rganuvchi maxsus yo'nalish – ta'lilda baholash (Educational Assessment) fani vujudga keldi. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlardagi qator universitetlar ushbu yo'nalish bo'yicha mutaxassislar tayyorlamoqda. Bu kadrlar davlat baholash tashkilotlari va ta'lim muassasalarida faoliyat yuritib, baholash jarayonlarini sifatli va me'yorlarga muvofiq tashkil etishni ta'minlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Darajali testlar ta'lim jarayonida muhim o'rinn tutadi va ularning samaradorligini ta'minlovchi qator afzalliklari mavjud. Ular o'quvchilarning bilim darajasini aniq baholash, har bir daraja uchun alohida nazorat tadbirlarini o'tkazish orqali differensial yondashuvni ta'minlaydi. Bu esa o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olib, ularni o'zlarini qiziqtirgan mavzularni chuqurroq o'rganishga undaydi. Shuningdek, darajalarning murakkablik darajasi motivatsiyani oshiradi va o'quvchilarning o'z maqsadlariaga erishish istagini kuchaytiradi. Darajali testlar, ayni paytda, o'rganish jarayonini faol qo'llab-quvvatlab, mavjud bilim va ko'nikmalarni mustahkamlashga yordam beradi. O'qituvchilar uchun esa bu testlar orqali natijalarni tahlil qilish imkoniyati yuzaga keladi, ya'ni o'quvchilarning qaysi mavzularda qiyinchilikka duch kelayotganini aniqlash mumkin bo'ladi. Tadqiqotda, shuningdek, muqobil javobli test topshiriqlarining o'quvchilarning nafaqat yodlash darajasini, balki ularning murakkab tafakkur va tahlil qobiliyatlarini ham baholash imkonini berishi asoslab beriladi. Bunday testlar voqe-a-hodisalarini tahlil qilish, prinsiplarni yangi holatlarga tatbiq qilish, fakt va shaxsiy fikrni farqlash, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash, grafik va boshqa shakldagi ma'lumotlarni tushunish, mavjud ma'lumotlar asosida hukm chiqarish, xulosa qilish va muammolarni yechish kabi murakkab kognitiv qobiliyatlarini baholashda qo'llaniladi. Muqobil javoblarining shakli va mazmunini moslashtirish orqali test topshiriqlarining qiyinlik darajasini nazorat qilish mumkin. Shuningdek, ularni bajarish uchun kamroq vaqt talab qilinadi, bu esa o'quvchilarning qisqa muddatda ko'proq savollarga javob berishlariga imkon yaratadi. Shunday qilib, tadqiqot metodologiyasi sifatida darajali va muqobil javobli testlardan foydalanish, o'quvchilarning bilim darajasini samarali baholash va ta'lim jarayonining sifatini oshirishda muhim vosita hisoblanadi.

Bundan tashqari, muqobil javobli test topshiriqlarining qiyinlik darajasini javob variantlarining shakli va tarkibini o'zgartirish orqali boshqarish mumkin. Masalan, muqobil javoblar bir-biriga qanchalik o'xshash tarzda ishlab chiqilsa, test topshirig'inining to'g'ri javobini topish shunchalik murakkablashadi. Odatda, test topshirig'iga javob berish o'quvchidan yozma ko'rinishdagi savolga javob berishdan ancha kam vaqt talab qiladi. Chunki o'quvchi yozma ravishda fikrini ifodalash uchun avvalo uni shakllantirishi, so'ngra qog'ozga ko'chirishiga to'g'ri keladi. Bu esa vaqt sarfini oshiradi. O'quvchi yozma savolga javob berishi uchun sarflaydigan vaqt ichida bir nechta test topshirig'iga javob berishi mumkin. Natijada, test topshiriqlaridan foydalanish o'qituvchiga ajratilgan vaqt ichida ma'lum bir fan doirasida o'quvchidan ko'proq savollarga javob olish imkonini yaratadi. O'quvchining to'plagan bali ko'plab savollarga asoslangan bo'lib, bu uning bahosini yanada xolisroq belgilashga yordam beradi.

Sifatli tuzilgan muqobil javobli test topshirig'i ishonchlilik nuqtai nazaridan boshqa topshiriq turlaridan ancha ustun turadi. Masalan, bunday testlarni baholashda qisqa javobli topshiriqlarda uchraydigan imloviy yoki qisman noto'g'ri javoblar bilan bog'liq muammolar yuzaga kelmaydi. Muqobil javobli topshiriqlarda esa o'quvchilardan aniq, oldindan belgilangan javoblar olinadi. Shuningdek, insho yoki boshqa yozma imtihon turlarini baholashda inson omili bilan bog'liq muammolar kuzatiladi. Baholovchi har bir ishga bir xil mezon bilan yondashmasligi mumkin. Shu sababli, yozma ishlarni kamida ikkita mustaqil baholovchi tekshirishi lozim bo'ladi. Muqobil javobli test topshiriqlarini baholashda esa barcha javoblarni oddiy hisoblashlar yoki maxsus texnologiyalar orqali avtomatik tarzda tekshirish mumkin, bu esa inson omiliga bog'liq xatoliklarni bartaraf etadi.



Bundan tashqari, o'quvchilarning yozish tezligi ham yozma imtihonlar baholarining ishonchlilikiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ba'zi o'quvchilar tez yozishga moyil bo'lsa, boshqalari sekin yozishga odatlangan. Har ikki holatda ham o'quvchi bir xil darajada to'g'ri javob bera oladi. Biroq vaqt cheklangan bo'lsa, sekin yozadigan o'quvchi o'z fikrini to'liq ifoda etishga ulgurmasligi mumkin. Muqobil javobli test topshiriqlarida esa bu kabi muammollar yuzaga kelmaydi.

Bunday testlar yordamida bir vaqtning o'zida ko'plab o'quvchilar imtihon topshirishlari mumkin. Maxsus texnologiyalar orqali ushbu imtihonlarning natijalari tez fursatda tekshirib chiqilib, e'lon qilinadi. O'qituvchilar test sinovlarini joriy nazorat jarayonlarida qo'llaganlarida, o'quvchilarning qaysi savollarga noto'g'ri javob berganligiga e'tibor qaratib, shu bo'limga keyingi darslarda alohida urg'u berishlari mumkin. Shuningdek, o'quvchilarning qaysi muqobil javoblarni tanlaganiga qarab, ularning qanday xatolarga yo'l qo'yayotganini aniqlash ham mumkin.

Validlikka xavf soluvchi omillar ham mavjud. Muqobil javobli test topshiriqlarida o'quvchi javobni mustaqil shakllantirish o'rniqa, mavjud variantlardan tanlaydi. Bu esa quyidagi kognitiv qobiliyatlarni to'laqonli baholashga imkon bermaydi:

- javobni chuqur va aniq tushuntirib berish;
- fikrlash jarayonini namoyon qilish;
- ma'lumotlardan o'z o'rniда va to'g'ri foydalanish;
- o'z fikrini mantiqiy va izchil tarzda ifoda etish;
- ma'lum bir amaliy vazifani bajarish;
- original g'oya ishlab chiqish;
- dalillar bilan asoslangan misollar keltirish.

Muqobil javobli test topshiriqlari bilan baholab bo'lmaydigan ayrim qobiliyatlar mavjud. Masalan, javobni chuqur va asosli tarzda izohlash, fikrlash jarayonini ifodalash, ma'lumotlardan maqsadga muvofiq foydalanish, fikrni tartibli bayon etish, amaliy vazifalarni bajarish, original g'oyalarni ilgari surish va misollar keltirish kabi ko'nikmalarni baholash uchun yozma yoki og'zaki imtihonlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Muqobil javobli test topshiriqlari bilan bog'liq yana bir muammo – bu test topshiruvchilarning javoblarni taxminan belgilash orqali ball yig'ishga urinishi bo'lib, u testning ishonchlilikini pasaytiradi. Sifatli test topshirig'i ishlab chiqish murakkab va vaqt talab qiluvchi jarayon sanaladi. Ayniqsa, chalg'ituvchi (distraktor) javoblarni ishlab chiqish va ularni to'g'ri joylashtirish test tuzuvchidan alohida didaktik mahorat va tajribani talab qiladi. Bu kabi malaka izchil izlanish, amaliy mashqlar va tajriba orqali shakllanadi.

Test topshiriqlari sifatini aniqlashning eng maqbul usuli – ularni oldindan aprobatasiyadan o'tkazishdir. Aprobatsiya test topshirig'ining kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga, u haqida muhim ma'lumotlar to'plashga xizmat qiladi.

Test topshiriqlarining afzalliklarini va kamchiliklarini har bir o'qituvchi hisobga olishi lozim. Ayniqsa, testdan foydalanishdan avval o'qituvchi testdan ko'zlangan maqsadni aniq belgilab olishi kerak. Ya'ni, test sinovi orqali o'quvchilarning qaysi ko'nikmalari baholanishi kerakligi aniq belgilanmasdan turib, testdan foydalanish noto'g'ri natijalarga olib kelishi mumkin. Shuningdek, testdan foydalanish ta'lim jarayonining qaysi bosqichida amalga oshirilayotganiga ham bog'liqdir. Masalan, yillik yakuniy imtihonda faqatgina testdan foydalanish maqsadga muvofiq emas. Chunki bu bosqichda o'quvchining bilim darajasi chuqur va har tomonlama baholanishi lozim. Test sinovi bu holatda faqat yordamchi vosita sifatida qo'llanilishi mumkin.

Biroq testlar joriy nazoratda juda samarali vosita hisoblanadi. O'qituvchi test sinovi orqali fanning bir nechta mavzularini qamrab olgan topshiriqlarni berishi va o'quvchilarning qaysi mavzularni yaxshi o'zlashtirganini, qaysilarida qiyinchilikka duch kelayotganini aniqlashi mumkin. Bundan tashqari, test natijalari o'quvchining o'zlashtirish darajasi, ya'ni fanning necha foizini o'zlashtirani haqida ham aniq tasavvur beradi.

Umuman olganda, test sinovlari o'quvchilarning bilimini taqqoslash, ularni bilim va ko'nikmalariga ko'ra tabaqaqalashtirish imkonini beradi. Ayniqsa, sinovda ishtirot etayotgan o'quvchilar soni ko'p bo'lsa, test samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Bunga eng yorqin misol sifatida oliy ta'lim muassasalariga kirish testlarini keltirish mumkin. Bu sinovda barcha o'quvchilarga teng sharoit va bir xil qiyinlikdagi test variantlari taqdim etiladi, bu esa baholashning xolisligini ta'minlaydi.



Zamonaviy ta'limga texnologik yondashuv ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'limga texnologiyasi elementlarini tanlashda va joriy etishda o'quvchilarning bilish faoliyatlarini inobatga olinishi lozim. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, nazariy darsning dastlabki 20 daqiqasi davomida o'quvchilarga yangi bilim berilishi, qolgan vaqtida esa bahs-munozara, kichik guruuhlar bilan ishslash kabi faol metodlar yordamida bilimlar mustahkamlanishi kerak. Idrok jarayonida bir nechta sensorik kanallarning birgalikda ishga tushishi ma'lumotlarning qisqa xotiradan uzoq xotiraga o'tishiga yordam beradi. Yo'naltiruvchi matnlar, muammoli vaziyatlar va boshqalarni o'qitish kabi yondashuvlar mustaqil o'zlashtirilgan va tahlil qilingan ma'lumotlarning 90 foizgacha xotirada saqlanishiga zamin yaratadi.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, an'anaviy metodlar qo'llanilganda o'quvchilar tomonidan eslab qolish darajasi 30 foiz atrofida bo'lsa, noan'anaviy metodlar bu ko'rsatkichni sezilarli darajada oshiradi. Har qanday ta'limga asosiy maqsadi – bilimni egallash va uni amalda qo'llay olish, zarur ko'nikmalarni shakllantirish hamda kerakli shaxsiy fazilatlarni rivojlanirishdan iborat.

O'qituvchilar o'tasida o'tkazilgan so'rovlar va adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, darsliklar, o'quv dasturlari va amaliy mashg'ulotlarda ko'zlangan o'quv maqsadlarining aksariyati kognitiv (bilishga oid) sohaga taalluqlidir. Shu asosda jahon pedagogikasida o'quv maqsadlari taksonomiyasini ishlab chiqilgan bo'lib, u ta'limga mazmunini belgilash va baholashda eng samarali vositalardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Bugungi kunda mamlakatimizdagi barcha ta'limga muassasalari hamda ta'limga oid davlat tashkilotlari testning turli shakllaridan faol foydalanmoqda. Masalan, o'quvchilar bilimini nazorat qilishda, pedagoglarning attestatsiyasida, akademik litsey va kasb-hunar maktablariga kirish imtihonlarida test topshiriqlari keng qo'llanilmoqda. Ammo ushbu jarayonlarda test topshiriqlarini yaratish, ularni aprobatasiyadan o'tkazish, testni tashkil etish va natijalarini to'g'ri tahlil qilish kabi bosqichlarda hali ham maxsus talab va metodikaga to'liq rioxaya qilinmayapti.

Testlar, odatda, muayyan qarorlarni qabul qilishda asos sifatida qo'llaniladi. Ya'ni, test natijalarini asosida ta'limga oluvchilar (o'quvchilar, talabalar), ta'limga beruvchilar (o'qituvchilar, muassasa rahbariyati) va butun ta'limga tizimi uchun muhim qarorlar qabul qilinadi. Bunday qarorlarning to'g'ri bo'lishi test natijalariga asoslangan xulosalarning valid (asosli) bo'lishini talab etadi. Xulosalarning valid hisoblanishi uchun esa ularni isbotlovchi dalillar zarur.

Validlikni isbotlovchi dalillar quyidagilar bo'lishi mumkin:

- testning mazmuni bilan bog'liq dalillar;
- test topshiruvchilarning topshiriqlarni bajarish jarayoni bilan bog'liq dalillar;
- testning ichki strukturasi bilan bog'liq dalillar;
- test natijalarining boshqa o'zgaruvchilar bilan bog'liqligi asosidagi dalillar;
- test natijalarining oqibatlari bilan bog'liq dalillar.

Ushbu dalillar validatsiya jarayonida yig'iladi. Validatsiya – test natijalarini asosli ekanligini ilmiy dalillar asosida isbotlash jarayonidir. Shunday ekan, validlik – bu testning o'ziga emas, balki test natijasida chiqarilgan xulosalarga taalluqli tushunchadir. Testning o'zi "valid" yoki "novalid" bo'lishi mumkin emas, ammo testga asoslangan xulosalar ma'lum darajada valid yoki novalid bo'lishi mumkin.

Validlik nisbiy tushuncha hisoblanadi: testdan nima maqsadda foydalanilgan va natijalar aslida nimanini ko'rsatmoqda, degan savollarga bog'liq holda baholanadi. Mutaxassislarining asosiy vazifasi – testdan chiqarilgan xulosalarning validligini imkon qadar yuqori darajada ta'minlashdir.

Test topshiriqlarining asosiy kamchiliklari:

Ilmiy asosning yetishmasligi. Bu holat, odatda, o'quv materiallari mazmuni to'liq anglab olinmagan holda tuzilgan testlarda kuzatiladi.

Savol va javoblar orasidagi mantiqiy bog'liqlikning buzilishi.

Sharhning noaniqligi. Topshiriq grammatik yoki ilmiy jihatdan noto'g'ri tuzilgan bo'ladi.

Statistik xarakterdagagi ma'lumotlarning ko'pligi. Sanalar, faktlar, ism-shariflar, atamalar kabi elementlarga asoslangan savollar testning 15–20 % ini tashkil etadi. Bunday topshiriqlar ko'proq xotirani tekshiradi, lekin tushunish va tatbiq etish darajasini baholay olmaydi.

Umumlashtiruvchi savollarning yo'qligi.



So'zbozlik. Savol va javoblarning uzunligi o'quvchining e'tiborini chalg'itadi, matnni tushunishni qiyinlashtiradi.

Javob variantlarining shartga mos kelmasligi.

To'g'ri javobning boshqalardan ajralib turishi. Bunday hollarda savolga to'g'ri javobni faqat kuzatish orqali topish mumkin.

Bir nechta to'g'ri javobning mayjudligi. Bu test ishonchlilagini pasaytiradi.

Yuqorida kamchiliklar test topshiriqlarining sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun test topshiriqlari bugungi ta'limg standartlariga to'liq mos holda, puxta ishlab chiqilishi lozim.

Avvallari keng qo'llanilgan testlar asosan xotirani sinovdan o'tkazishga qaratilgan bo'lib, real hayotda bilimlarni qo'llash imkonini bermas edi. Hozirda esa matnga asoslangan zamonaviy testlar bu kamchilikni qoplashga xizmat qilmoqda.

Muqobil javobli test topshiriqlari ta'limg oluvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashda samarali vosita bo'lib, uch asosiy tarkibiy qismdan iborat: savol (o'zak), to'g'ri javob (kalit) va chalg'ituvchilar (distraktorlar). Sifatli test topshiriqlarini ishlab chiqish nafaqat vaqt, balki yuqori malakali mutaxassislarni ham talab etadi[1].

Yaxshi tuzilgan testlar yordamida o'quvchilarning bilim darajasini aniq baholash, shuningdek yuqori va quyi darajadagi bilimlarni o'zlashtirgan o'quvchilarni farqlash mumkin. Bunday topshiriqlar sinaluvchilarda shakllangan quyi va yuqori kognitiv darajalar haqida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarishga xizmat qilishi lozim[2-4].

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu test turlaridan foydalanim, publisistik matnning mazmuni va g'oyasini ochib berishga harakat qilindi. Natijada o'quvchilarda matnni tushunish ko'nikmasi sezilarli darajada oshdi.

Mo'jizaning bahosi (badiiy matn)

Tessi – o'n yoshlar atrofidagi istarali bir qizcha. U bir kuni ota-onasining ukasi haqida suhbatlashayotganini eshitib qoladi. Qizcha ukasi og'ir kasal ekanini va uni davolash uchun ota-onasining puli yo'qligini tushunadi. Oila yaqinda boshqa uya ko'chib o'tgan bo'lib, bir vaqtning o'zida uy uchun to'lov va muolaja xarajatlarini qoplashga imkon yo'q edi. Teddini faqat yuqori malakaga ega va xizmati qimmat jarroh davolashi mumkin edi.

Tessining onasi yig'laydi, otasi esa umidsiz ohangda shunday deydi:
– Teddini hozir faqat mo'jiza qutqarib qolishi mumkin.

Bu gapni eshitgan qizcha xonasiga yugurib kiradi, g'aladondagi qutichasini ochib, butun boyligini gilam ustiga to'kadi. Tangalarni uch marta sanaydi. So'ng pullarini qutiga joylab, bor kuchi bilan dorixonaga qarab yuguradi. U dorixonada navbatini kutib turadi, biroq oq xalatlari kishi boshqa bir kishi bilan qizg'in suhbatda bo'lib, o'n yashar qizchaga e'tibor bermaydi. Qizcha oyoqlarini tap-tap uradi, yo'taladi, oxiri oynani chertadi. Nihoyat dorachi unga yuzlanadi:

– Nima kerak senga? – deya asabiy ohangda so'raydi. – Ko'rmayapsanmi, ukam bilan gaplashyapman. U Chikagodan keldi, necha yildan beri ko'rishmagandik.

– Men ham ukamni deb keldim, – deydi Tessi titroq ovozda. – U juda og'ir kasal... Men unga mo'jiza sotib olmoqchiydim.

– Nima deding? Mo'jiza?

– Ukamning ismi Ted. Boshida yomon narsa bor ekan. Dadam: "Faqat mo'jiza uni qutqaradi", – dedi. Mo'jiza necha pul turadi?

– Qizalog'im, biz mo'jiza sotmaymiz, – deydi dorachi. – Kechirasani, senga yordam bera olmayman.

– Menda pul bor. Agar kam bo'lsa, yana olib kelaman.

Bu suhbatni eshitgan dorachining po'rim kiyungan ukasi cho'nqayib o'tiradi-da, Tessi bilan gaplashadi:

– Kel-chi, qizim. Ukangga qanday mo'jiza kerak?

– Bilmadim, – deydi Tessi yig'lab. – Ukamni operatsiya qilish kerak ekan, oyim aytdi. Dadam esa to'lay olmaydi. Shuning uchun o'zimdag'i pulni ishlatmoqchiman.



- Qancha puling bor?
- Bir dollaru o'n bir sent. Barchasi shu.
- Chikagolik mehmon tangalarni olib, qizchaning qo'lidan tutadi:
- Hozir sizlarning uylaringizga boramiz. Ota-onang bilan suhbatlashamiz, ukangni ko'ramiz. Qanday mo'jiza kerakligini shunda bilamiz.

Bu inson mashhur neyroxiturg – Karlton Armstrong edi. U jarrohlik amaliyotini mutlaqo tekin amalga oshiradi va Ted tez orada sog'-salomat uyiga qaytadi. Ota-onasi bu holatdan hayratda: biri olib, biri qo'yib do'xtirni maqtab, uni yo'liqtirgani uchun Xudoga shukr aytadi.

– Bu do'xtir haqiqiy mo'jiza bo'ldi, – deydi onasi shivirlab. – Bilmayman, bunaqa operatsiya necha pul turar ekan...

Tessining yuzida tabassum paydo bo'ladi. U mo'jizaning asl bahosini aniq bilardi: bir dollaru o'n bir sent va o'n yashar qizaloqning samimiy ishonchi.

- Test savollari
1. Teddini ... ega va xizmati qimmat jarrohgina davolashi mumkin edi.
 - To'g'ri javobni belgilang:
 - A) bilim B) kuchli malaka C) tajriba D) irodali
 2. Biroq oq xalatli kishi boshqa bir kishi bilan qizg'in suhbatlashar, xona chetidagi ... yashar qizchaga qarab ham qo'ymasdi.
 - A) 11 B) 12 C) 10 D) 9
 - 3.Quyidagi savollarni to'g'ri/noto'g'rilingini aniqlang.
 - 1)Karlton Amstrong Teddining jarrohlik amaliyotini pulga qildi.
 - To'g'ri Noto'g'ri
 - 2)Qizchaning qo'lida bir dollaru o'n bir sent bor edi.
 - To'g'ri Noto'g'ri
 - 3)Karlton Armstrong Nyu-Yorkdan kelgan edi.

To'g'ri

Noto'g'ri

4)Teddining tuzalib ketishiga bir dollaru o'n bir sent hamda va o'n yashar qizaloqning samimiy ishonchi sabab bo'ldi.

- To'g'ri Noto'g'ri
- 4.Jadvalni to'ldiring.
 - 1) Tessi ukasining og'ir kasalligini ota-onasining suhbatidan bilib oldi.
 - 2)Tessi dorixonaga borib, dori sotib oldi.
 - 3)Tessi dorixonaga borishdan oldin ota-onasidan ruxsat so'radi.
 - 4)Tessi ukasini davolash uchun xayriya tashkilotiga murojaat qildi.

To'g'ri	Noto'g'ri

5.Raqamlarni(A-F) moslashtiring.(harflardan ikkitasi ortiqcha)

1)Tessi 2)Ted 3)Karlton Armstrong 4)Dorixonachi	A)Mashhur neyroxiturg B)Dorixonaga mo'jiza istab borgan C)Og'ir kasal bo'lgan D)Uy sotib olgan E)Tessi bilan gaplashishni istamagan F)Bolasini kasaliga siqlayotgan
--	--



6. Raqamlarni(A-F) moslashtiring.(harflardan ikkitasi ortiqcha)

1) Tessi dorixonaga nima sotib olish uchun boradi?	A) Bir dollar o'n bir sent
2) Karlton Armstrong kim edi?	B) Dorixonachi
3) Tessi mo'jizaning bahosi qancha deb o'ylaydi?	C) Mo'jiza
4) Karlton Armstrong operatsiyani qanday amalga oshirdi?	D) Bepul

7. Tessi ukasining kasalligini qanday bilib oldi?

- A) Unga o'zi aytdi
 B) Onasi unga tushuntirdi
 C) Ota-onasining suhbatini eshitib qoldi
 D) Do'xtir xat orqali xabar berdi

8. Hikoya oxirida ota-onal Karlton Armstrong haqida qanday fikr bildirdi?

- A) Uni sehrgar deb o'ylashdi
 B) Uni farishta sifatida ko'rishdi va Xudoga shukr qilishdi
 C) Unga oz miqdorda bo'lsa ham haq to'lashga qaror qilishdi
 D) Uni boshqa bemorlarni davolashga chaqirishdi

9. Quyidagi gap qo'shma gapning qaysi turiga kiradi?

"U jarrohlik amaliyotini mutlaq tekinga qildi va Teddi tez orada uyiga soppa-sog' bo'lib qaytdi."

- A) Ergash gapli qo'shma gap
 B) Bog'langan qo'shma gap
 C) Sodda gap
 D) Murakkab qo'shma gap

10. Matnning qaysi uslubga xos ekanini aniqlang.

- A) Badiiy
 B) Rasmiy
 C) Ilmiy-ommabop
 D) Publitsistik

XULOSA VA TAKLIFLAR

Har bir turdag'i test topshirig'in o'ziga xos qo'llanish sohasi, ijobiy va salbiy jihatlari mavjud. Test topshirig'i turini tanlashda, avvalo, baholashning maqsadini aniq belgilab olish zarur. Masalan, agar baholashdan ko'zlangan maqsad – kiruvchilarning xorijiy tilda esse yozish qobiliyatini aniqlash bo'lsa, bu holatda kengaytirilgan javobni talab qiladigan test topshirig'i eng maqbul variant hisoblanadi.

Demak, qanday test topshirig'i turini tanlash – aynan qaysi ko'nikma yoki kompetensiyani baholash zarurligi bilan bevosita bog'liq. Baholanadigan ko'nikmalar va ularga mos keluvchi test topshirig'i turlari test spetsifikatsiyasi (topshiriq tafsiloti)da aniq ko'rsatilishi lozim.

Shu bilan birga, darajali testlar bilim, ko'nikma va malakani baholashda doimo ishonchli va maqsadga muvofiq vosita sanaladi. Ular o'quvchilar individual tayyorgarlik darajasiga moslashtirilgan holda baholash imkonini yaratadi, bu esa test natijalarining validligi va obyektivligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jalilov K. Baholash nazariyasi asoslari (pedagogik o'lchovlar, testologiya). Toshkent: Akademnashr, 2020.
2. Brookhart S.M. How to Design Questions and Tasks to Assess Student Thinking. Alexandria, VA: ASCD, 2014.
3. Green A. Exploring Language Assessment and Testing: Language in Action. New York, NY: Routledge, 2014.
4. Green R. Statistical Analyses for Language Testers. New York, NY: Palgrave Macmillan, 2013.



5. Haladyna T., Rodriguez M. Developing and Validating Test Items. London – New York: Routledge, 2013.
6. Hamzaev M. Ona tili mavzuli test topshiriqlari to‘plami. – T.: “Sharq”, 2012.
7. Axborotnoma IX. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi. – T.: 2001.
8. Sultonov F. Qadimgi dunyo tarixi fanidan mavzuli test topshiriqlari to‘plami. – T.: “Sharq”, 2011.
9. Bolotov V.A., Serikov V.V. Kompetentnostnaya model: ot idei k obrazovatelnoy programme // Pedagogika. – 2003. – №10. – S. 8–14.
10. Duschanov B.A., Raximov B.S., Cobirova S.K. Testologiya: test tuzish san’ati. // Molodoy uchenyy. – 2017. – №16.2 (150.2). – S. 27–28.
11. Internet saytlari:
 - n.sportal.ru
 - eduscan.allbest.ru
 - pedagogika.websib.ru

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100